



**ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA
O'QUVCHILARDA INSONPARVARLIK FAZILATLARINI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

Xamidova Nigora Ibrohimovna

*UBS, Boshlang'ich ta'lim va
sport faoliyati kafedrası o`qituvchisi*

Email: hamidovanigora6868@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik jarayonda antroposentrik yondashuvning mohiyati va uning asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, maktab ta'limida tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: antroposentrik yondashuv, insonparvarlik, fazilat, tarbiya, axloqiy qadriyat, o'quvchi, shaxsiy rivojlanish, mehr-shavqat, empatiya, individuallashtirish, hamkorlik.

**ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ГУМАНИТАРНЫХ
ДОБРОДЕТЕЛЕЙ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ
АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

Хамидова Нигора Иброхим

*УБС, преподаватель кафедры начального
образования и спортивной деятельности*

E-mail: hamidovanigora6868@gmail.com





Аннотация. В статье рассматривается сущность антропоцентрического подхода в современном педагогическом процессе и пути формирования гуманистических качеств учащихся на его основе. Рассматриваются возможности повышения эффективности воспитательной работы в школьном образовании и воспитания учащихся в духе социально-нравственных ценностей.

Ключевые слова: антропоцентрический подход, гуманность, добродетель, образование, моральные ценности, студент, личностное развитие, сострадание, эмпатия, индивидуализация, сотрудничество.

WAYS TO FORM HUMANITARIAN VIRTUES IN STUDENTS BASED ON ANTHROPOCENTRIC APPROACH

Khamidova Nigora Ibromximovna

UBS, teacher of the Department of
Primary Education and Sports Activities

E-mail: hamidovanigora6868@gmail.com

Abstract. This article discusses the essence of the anthropocentric approach in the modern pedagogical process and the ways to form humanistic qualities in students on its basis. It also considers the possibilities of increasing the effectiveness of educational work in school education and educating students in the spirit of socio-moral values.

Keywords: anthropocentric approach, humanity, virtue, education, moral values, student, personal development, compassion, empathy, individualization, cooperation.





Bugungi kunda ta'lim tizimiga e'tibor va talab kundan-kunga kuchayib, katta islohotlar olib borilmoqda. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimi shaxsni faqat bilim oluvchi emas, balki o'quvchilar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan kompetensiyalar, insoniy fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Ta'limni takomillashtirish, o'quvchilarda insonparvarlik, kommunikativ, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiyasi yondashuv asosida shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu islohotlar taqdim etgan axborot kommunikativ va ilg'or o'quv texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari, modullashtirilgan hamda zamonaviy ta'lim usullari yordamida yoshlarni ma'naviy-axloqiy takomilga yetkazish[1] va o'qitish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'lim jarayonining samaradorligi uning qanday yondashuvlardan foydalanilayotgani bilan uzviy bog'liqligi, bir nechta yondashuvlarning farqlovchi jihatlari, antroposentrik yondashuvning ta'limni inson omili bilan bog'lab o'rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o'z-o'zini namoyon etishga asoslangan yondashuv ekanligi, antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish kabi masalalar o'rganiladi.

Tahlillar mamlakatimiz pedagogika fanida o'quvchi va talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning turli jihatlariga katta e'tibor qaratilsa-da, ammo aynan antroposentrik yondashuv asosida rivojlantirilgan shaxsni shakllantirish masalasi deyarli uchramaydi. Yetuk shaxs masalasi intellect madaniy hodisa sifatida bu aql va shaxsning uzviy birligini anglatadi [2]. Shakllangan intellektual madaniyat odamga o'z bilimlari va tajribasidan unumli foydalanishga, atrof-muhit va jamiyatdagi tobora kuchayib borayotgan





o'zgarishlarga tezroq moslashishga va shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirishda samarali rivojlanishiga imkon beradi. Bunday kishini tarbiyalash ko'p jihatdan ta'limning eng oliy maqsadidir.

Bizningcha, yetuk shaxs deganda ham insonparvar shaxsni, ham ma'naviy boylikni o'zlashtirish darajasi bilan tavsiflanadigan va ta'lim, mustaqil fikrlash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini tushunish, unga amal qilishi bilan tavsiflanadigan shaxs tushuniladi[3].

Antroposentrik yondashuvning pedagogik mohiyati:

Antroposentrizm tushunchasi falsafiy ildizlarga ega bo'lib, insonni borliq markazi sifatida ko'radi. Pedagogikada esa bu yondashuv o'quvchining shaxsiy jihatlariga mos ta'lim-tarbiya strategiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ya'ni, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, shaxsiy maslahatchi va ruhiy qo'llab-quvvatlovchi sifatida namoyon bo'ladi. [4].

Bu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Individuallashtirish – har bir o'quvchining qiziqishi va salohiyatini inobatga olish;

Empatiya – o'quvchi ichki dunyosini anglash va unga nisbatan mehr bilan yondashish;

Hamkorlik – o'quvchi bilan tenglik asosida muloqot qilish;

Ijtimoiy faollik – o'quvchilarni jamiyatda faol ishtirok etishga yo'naltirish.

Insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish zarurati

Insonparvarlik – bu insonni oliy qadriyat deb bilish, unga nisbatan mehr, hurmat, bag'rikenglik bilan yondashishdir. Bugungi kunda yoshlar orasida individualizm, befarqlik va agressivlik kabi holatlarning kuchayishi insonparvarlik tarbiyasini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shuning uchun ta'lim jarayonida insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish lozim.

Ta'lim jarayonida quyidagi asosiy fazilatlar shakllantirilishi kerak:





Mehr-shavqat – bu boshqa insonlarning, jonli mavjudotlarning holatiga yurakdan achinish, ularning dardini his qilish va yordam berishga ichki ehtiyoj sezishdir. Bu fazilat odamning g'amxo'r, kechirimli, sabrli va rahmdil bo'lishini ifodalaydi.

Hamdardlik – bu nafaqat biror kishining qayg'usini tushunish, balki ichki hissiy jihatdan u bilan birga bo'lish, uning his-tuyg'ulariga befarq bo'lmaslik, zarurat tug'ilganda unga yordam qo'lini cho'zishdir. Bu tuyg'u insoniylik, mehr, o'zaro hurmat va jamoaviy birdamlikning muhim ko'rinishidir.

Halollik va adolat – jamiyatdagi eng muhim axloqiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Ularning har biri alohida ma'no anglatadi, ammo ko'pincha ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Quyida har birining sodda va tushunarli ta'rifi berilgan:

Ma'suliyat; – bu kishining o'z harakati, qarorlari yoki topshirilgan vazifalar uchun javobgarlik hissini anglatuvchi tushunchadir. Bu atama ko'pincha etik, huquqiy yoki ijtimoiy kontekstda ishlatiladi.

Ma'suliyat – bu o'z harakatlari yoki vazifalari natijasini anglab, ularga javob bera olish qobiliyati va majburiyatidir.

Ma'suliyatning turlari;

Shaxsiy ma'suliyat – odamning o'z xatti-harakatlari uchun javob berishi.

Ijtimoiy ma'suliyat – jamiyat oldidagi burch va vazifalarni ado etish majburiyati.

Huquqiy ma'suliyat – qonunlar asosida javobgarlikka tortilish ehtimoli.

Axloqiy (etik) ma'suliyat – odob, axloq qoidalariga asoslangan javobgarlik.

Bag'rikenglik – bu odamlarning diniy, milliy, irqiy, madaniy, siyosiy yoki shaxsiy qarashlari, turmush tarzi yoki e'tiqodlari siznikidan farq qilsa ham, ularni hurmat qilish, tushunishga harakat qilish va murosaga tayyor bo'lishdir.

Insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari





Antroposentrik yondashuv asosida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda quyidagi usul va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

a) Tarbiyaviy suhbatlar va muhokamalar

Axloqiy mavzular bo'yicha darsdan tashqari suhbatlar tashkil qilish orqali o'quvchilarning dunyoqarashi va hissiy-intellektual salohiyati rivojlantiriladi.

b) Badiiy adabiyot va san'at vositalaridan foydalanish

Insoniy fazilatlarni aks ettiruvchi asarlarni o'rganish, dramatik chiqishlar, insholar yozish orqali o'quvchilarning qalbiga ta'sir etish mumkin.

c) Rolli o'yinlar va empatiya mashqlari

O'quvchilarni turli hayotiy vaziyatlarga qo'yish orqali ularning empatik hissiyotlari rivojlanadi.

d) Jamoaviy loyihalar

Ijtimoiy loyihalarda qatnashish (masalan, xayriya tadbirlari, ekologik tashabbuslar) orqali o'quvchilar ijtimoiy mas'uliyatni his qilishadi.

e) O'qituvchi shaxsining namuna bo'lishi[4].

Eng muhimi, o'qituvchining o'zi insonparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, o'z harakati, muomalasi va qadriyatlari bilan o'quvchilarga ijobiy namuna bo'la olishi zarur. Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarni tarbiyalash nafaqat ularning bilim darajasini, balki shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Insonparvarlik fazilatlari – jamiyatning ma'naviy barkamolligi kafolati bo'lib, bunday tarbiyani maktabdan boshlash zarur. Shu bois, pedagoglar o'z faoliyatida insoniy qadriyatlarni ustuvor qo'yib, har bir o'quvchini shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Antroposentrik yondashuv jarayonida mazkur yondashuvning ta'limni inson omili bilan bog'lab o'rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o'z-o'zini namoyon etishga asoslangan yondashuv ekanligini nazarda tutib, talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etish, shakllantirish, rivojlantirishda interfaol





metodlar, pedagogik texnologiyalar, AKT imkoniyatlaridan to'g'ri va to'liq foydalanishga harakat qilish lozim. Tarixdan ma'lumki, har bir inson qalbida o'z yurtiga sadoqat, fidoiy bo'lish tuyg'usi insonparvarlik va vatanparvarlikning oliy nishonasi hisoblanadi. Zero, inson uchun eng aziz va muqaddas bo'lgan Vatanni himoya etish, odamlarni sevish va e'zozlash har bir insondan buyuk ma'naviy jasoratni talab etadi. Inson ma'naviyatiga qarshi qaratilgan jaholat g'afolatga, loqaydlik esa beparvolikka giriftor etadi.

Natijada, mazkur holat insonni vatan taqdiriga nisbatan daxldorlik tuyg'usini yo'qotish orqali uning ma'naviyatini so'ndirishga zamin yaratadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi tobora oydinlashmoqda. Hozirgi nozik va ayni paytda, o'ta murakkab sharoitda o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi illatlarga qarshi ma'rifat bilan kurashish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holikulova F.X. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanini o'qitish metodikasi – T.: PAPER BOOK, 2022
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
4. Rustamov Sh. O'qituvchining axloqiy fazilatlar. – T.: O'qituvchi, 2019.
5. UNESCO. Education for Humanism and Global Citizenship, 2021.

